



**TOSHKENT DAVLAT
AGRAR UNIVERSITETI**

№2. [2]. 2025

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

**АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ**

**AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY**



**ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL**

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025



Anvarjonov Azamat Nematjon o'g'li

Biznesda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning ahamiyati.....614

Kamolov Xudoyor Zoirovich

Problems in the development of tourism in bukhara region and ways to elimination.....619

Tabaev Azamat Zaripbayevich

O'zbekiston qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar ta'minotining o'zgarishi va uning g'alla hosildorligiga ta'sirini modellashtirish.....627

Suyundikova Dilafruz Mamarajabovna

O'zbekiston qishloq xo'jaligida o'simliklarni himoya qilish tizimining iqtisodiy samaradorligi....633

Kasimova Gulyar Axmatovna, Mallayev Zokir Safarboyevich

G'aznachilik xizmati tizimining nazariy-huquqiy asoslari.....640

Temirova Muxabbat Temirovna

Xorijiy mamlakatlarning aholini ijtimoiy himoyalashni statistik baholash bo'yicha ilg'or tajribalari va ulardan mahalliy darajalarda foydalanish yo'llari.....650

Temirova Muxabbat Temirovna

Navoiy viloyatida aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy ko'rsatkichlarini iqtisodiy-statistik usullardagi tahlili.....659

Qudratov Erali Sherali o'g'li

Yaylov yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari.....669

Ибрагимова Мадина Исмоиловна, Абдуазизов Фахриддинулмасович, Шарифов Заррух Зарифович

Теоретические и практические аспекты формирования зелёной экономики в условиях глобальных инновационных изменений.....676

Saidova Dildora Nurmatovna

Assessment of the impact of climate change on food security in Uzbekistan.....682

Дехканова Шахлохон Сагдиевна, Эрматов Шухрат Абдурахманович

Мероприятия по повышению урожайности овощей в Узбекистане.....691

Toshpo'latova Munisabonu

MHXSga muvofiq xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushumlar hisobining amaliyotga tadbiiq etilishining nazariy asosi.....698

Ибрагимова Мадина Исмоиловна, Хамрокулова Райхона Фаридуновна

Образовательный туризм как фактор международной академической мобильности и экономического развития.....705

Холиёров Парда Саъдуллаевич

Божхона аудитини жорий этишнинг ўзига хос хусусиятлари.....711

Saidrasulova Xolida Bekpulatovna

Sanoat korxonalari boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari.....721

Madiyev Shaxzod Shodmon o'g'li

Iqtisodchi olimlarning texnik salohiyatga oid nazariy qarashlari.....731

Bekjanov Dilmurad Yuldashovich, Samandarova Mohinur Qadamboy qizi

Mintaqada turizmni rivojlantirishda ijtimoiy media marketingining mavjud muammolari va imkoniyatlari.....736

Саидова Дилдора Нурматовна, Каримов Абдулхай Абдусаттор ўғли, Эргашев Абзор Шодмон ўғли

Глобаллашув шароитида озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш муаммолари.....747

Ozod Masharipov, Ermamatov Shuhrat Abduraxmanovich

Auditda muhimlik darajasini aniqlash.....755



UO‘K: 338.4

IQTISODCHI OLIMLARNING TEXNIK SALOHİYATGA OID NAZARIY QARASHLARI**MADIYEV SHAXZOD SHODMON O‘G‘LI**Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish
va tadqiqotlar xalqaro markazi 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnik salohiyat tushunchasiga oid xorijiy va mamlakatimiz olimlarining nazariy qarashlari haqida so‘z yuritiladi. Shu jumladan, qishloq xo‘jaligida “texnik salohiyat” tushunchasining iqtisodiy kategoriya sifatida taklif etilishi haqida mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, yalpi mahsulot, salohiyat, resurs salohiyati, texnik salohiyat, kontent-tahlil.

Аннотация. В статье изучены теоретические взгляды зарубежных и отечественных ученых на понятие технического потенциала. В частности, предложены высказывания касательно предлагаемого понятия «технический потенциал» как экономической категории в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: сельское хозяйство, валовой внутренний продукт, потенциал, ресурсоемкость, техническая мощность, контент-анализ.

Annotation. This article discusses the theoretical views of foreign and local scientists on the concept of technical potential. In particular, it presents considerations on the proposal of the concept of “technical potential” as an economic category in agriculture.

Key words: agriculture, gross domestic product, potential, resource potential, technical potential, content analysis.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz agrar sohasi iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda hal etuvchi ahamiyat kasb etadigan muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri – bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda modernizatsiya, texnik va texnologik yangilash va resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari muhim ahamiyat kasb qilmoqda. Shu bilan birgalikda, qishloq xo‘jaligida korxonalarning texnik salohiyatidan samarali foydalanish hamda uning samaradorligini oshirish bilan bog‘liq masalalar, texnologik jarayonlarni amalga oshirishda texnika vositalari bilan ta‘minlash masalalari dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish salmog‘i va sifatini oshirishda sohaga yangi texnika vositalaridan foydalanish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishning ahamiyati ortib bormoqda.

Ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asosda tushuntirishda iqtisodiyotning turli tarmoqlari miqyosida salohiyatni shakllantiruvchi asosiy omillar – bu resurslardir. Aynan ushbu resurslar ishlab chiqarishda yetakchi rol o‘ynaydi va salohiyatni aniqlash masalasida ahamiyatlilik jihatlarini belgilashda jiddiy muammolar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Narxlarning o‘zgarishi, texnologiya va mashinalarning doimiy

takomillashuvi sababli texnikaning kapital element sifatdagi ahamiyatini aniqlashtirish talab qilinadi, natijada uning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi natijadorligiga ta’sir darajasi o‘zgaradi. Bundan tashqari, agarda muayyan tarixiy bosqichda resurslarning asl mohiyati to‘g‘risida fikr yuritiladigan bo‘linsa, ularning cheklanganligi va yashirin imkoniyatlari sharoitida “salohiyat” atamasini qo‘llash zaruriyati paydo bo‘ladi. Ko‘pchilik hollarda, salohiyat “vositalar, zaxiralar, manbalar”, “yig‘ilgan resurslar”, “resurslarning texnologik komplekti”, “mahsulot ishlab chiqarishning me‘yoriy imkoniyatlari”, “mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha maksimal imkoniyatlar” sifatida qaraladi.

Hozirgi kunda iqtisodiyot nazariyasida qishloq xo‘jaligining texnik salohiyati, uning tuzilmasi to‘g‘risida aniq qarashlar ta’riflar mavjud emas. Shu bilan birga, ishlab chiqarish va resurs imkoniyatlari, ishlab chiqarishning obyektiv shartlari, iqtisodiy, ishlab chiqarish, resurs, agrar salohiyat va boshqa tushunchalar uchraydi.

Ilmiy manbalar tahlilining ko‘rsatishicha, “salohiyat” kategoriyasini aniqlashga bo‘lgan yondashuvlarning ko‘pchiligi tanlangan tadqiqot predmetiga nisbatan resurslar mohiyatini aniqlashga yo‘naltirilgan. Olimlar va tadqiqotchilar tomonidan “salohiyat” atamasining turlicha talqinlarini qo‘llash taklif etiladi: iqtisodiy, resurs, ishlab chiqarish, texnik, texnologik, intellektual, mehnat va hokazo.

Iqtisodiyotda “salohiyat” deganda biror-bir vazifani hal qilish, muayyan maqsadga erishish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan manbalar, imkoniyatlar, vositalar, zaxiralar tushuniladi [6].

Genetik jihatdan “salohiyat” so‘zi lotincha “potensial” (potential – “yashirin kuch”) so‘zidan olingan. Potensial – yashirin imkoniyat, qobiliyat, ma’lum sharoitlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan quvvat, kuchdir. Bu mavjud bo‘lgan va muayyan maqsadga erishish uchun ishga solish mumkin bo‘lgan zaxiralar va manbalar bo‘lishi mumkin. Ammo, qator tadqiqotlarda, salohiyat tarkibiga shunday elementlar kiritilganki, ular ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishiga qaramasdan kuchi va quvvati jihatidan baholash imkonini bermaydi (masalan, moddiy resurslar). Bunday talqin iqtisodiy muammoni tadqiq qilish, uning qator masalalarini yechishda qiyinchilik tug‘diradi.

Agrar sohada “salohiyat” tushunchasi XX asrning 70-80-yillarida ilmiy tus olgan, iqtisodiy adabiyotlarda korxona resurs imkoniyatlarini ko‘tarish va amalga oshirish uslubiyati va amaliyotiga, ularning pirovard natijalarini baholashga, ya’ni salohiyat iqtisodiy mohiyatini bevosita yoki bilvosita ochib beradigan muammolarga katta e’tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iqtisodchi olimlarning texnik salohiyatga oid nazariy qarashlari kontent-tahlil va taqqoslama tahlil usullari asosida o‘rganildi. Tahlil davomida har bir nazariy yondashuvning mohiyati, rivojlanishi hamda ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri aniqlab berildi.

TAHLILAR VA ASOSIY NATIJALAR

“Texnik salohiyat” tushunchasiga ta’rif berishda tadqiqotchilarning qarashlari ham juda xilma-xil. Olimlarning bir qismi, texnik salohiyat – mahsulotning tegishli

hajmini ishlab chiqarish, ishlarning muayyan hajmini bajarish qobiliyatiga ega bo'lgan texnik vositalar yig'indisidan iborat, deb hisoblasalar, boshqalarning fikricha, salohiyat bu resurslar emas, balki mahsulot ishlab chiqarish maqsadlariga erishish imkoniyatlaridir. Bizningcha, texnik salohiyatning resurs tarkibi (ya'ni, agro ishlab chiqarish maqsadlariga erishish uchun foydalanish mumkin bo'lgan resurslar) va ushbu resurslardan foydalanishning potensial imkoniyatlari bir xil emas. Texnik salohiyat resurslardan yanada oqilona foydalanish va ularning samarasini oshirish qobiliyatini ifodalaydi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari innovatsion va resurs tejovchi texnologiyalar asosida texnik salohiyatni shakllantirish zaruriyatini belgilab beradi [8]. A.I.Averkiev texnik salohiyatni inson-mashina tizimi sifatida ko'radi, bu mashinalarning salohiyatli texnik, texnologik, iqtisodiy va ekologik tavsiflarini ro'yobga chiqarish ularda ishlayotgan xodimlarning kasbiy darajasiga bog'liq ekanligi bilan tushuntiriladi [1]. V.I.Dragaysevning fikricha, qishloq xo'jaligining texnik salohiyati – bu barcha texnik vositalar yig'indisi: mahsulot ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mashina va uskunalar, bino va inshootlar [2].

M.A.Rozalieva texnik salohiyatni, xo'jalikda mavjud texnik vositalari (mashina va uskunalar) yig'indisi sifatida belgilaydi, ularning yig'indisi mashina-traktor parkini, chorvachilikdagi mexanizatsiya vositalarini, ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bazasini tashkil etadi. Mazkur holatda, texnik salohiyat resurs bilan ta'minlanganlikka tenglash-tiriladi, ya'ni faqatgina miqdoriy tomoni hisobga olinadi. Ammo, salohiyatning miqdoriy bahosi resurslarning turli ishlab chiqarish qobiliyatlarini aks ettira olmaydi [7].

N.A.Kreymer “texnik salohiyat” tushunchasini mazmunini ikki qismga ajratadi. Tor ma'noda texnik salohiyat – bu muayyan ish hajmini bajarish, mahsulotning muayyan hajmini ishlab chiqara olish qobiliyatiga ega bo'lgan texnik vositalar yig'indisidir. Texnik salohiyatning harakatlantiruvchi kuchi sifatida, N.A.Kreymer ishchiga alohida rol ajratadi. Keng ma'noda mazkur kategoriya nafaqat texnik, balki ta'mirlash bazasi, boshqaruv mexanizmi va texnik salohiyat rivojlanishi va qo'llanilishi ta'minotini o'z ichiga olgan, mehnat va infratuzilma tarkibiy qismlaridan iborat bo'ladi [4].

A.N.Kortyaev xuddi M.A.Rozalieva kabi texnik salohiyat mavjud texnik resurslardan va N.A.Kreymer kabi – vaqt birligi ichida ishlarning muayyan turlari va hajmlarini bajarish imkoniyatiga ega mehnat resurslaridan iborat deb biladi [3].

S.F.Fraer texnik salohiyat deganda ishlab chiqarish va texnika mujassamlashuvining shunday darajasini tushunganki, unda turli xil, ammo bir-birini to'ldiruvchi ishchi mashinalarining yig'indisi, ishlab chiqarishning barcha jarayonlarini mexanizatsiyalashgan usulda bajarilishini to'liq ta'minlaydi.

Adam Smit, texnik salohiyatni alohida kategoriyaga ajratgan birinchi olimlardandir. Uning ta'kidlashicha, texnik salohiyatning mehnat resurslaridan asosiy farqi, “mashina ishchidan farqli tarzda bir marta va abadiy sotilishida emas, balki ishchi sarflaydigan mehnat mahsulot qiymatiga to'liq kiritiladi, mashina qiymati esa mahsulotga qismlab o'tishidadir”.



Shu bilan birga, David Rikardoning fikricha, mashinalarning kashf etilishi va foydali qo'llanilishi mamlakat sof mahsulotining oshishiga olib kelishini ta'kidlagan holda ishlab chiqarish jarayonida moddiy-texnik baza mohiyatini yoritishga erishgan.

Genri Fordning fikricha, "....korxonalarning mehnat unumdorligi va buning natijasida uning raqobatdoshligini oshishining muhim omili sifatida, ishlab chiqarishni yoppasiga mexanizatsiyalashtirish" xizmat qiladi.

A.V.Suganov nuqtai nazariga ko'ra, ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari natijalari qisman "kapital" ishlab chiqarish resursida aks ettirilgan bo'lishi lozim deyish mumkin. Qator holatlarda mashina va uskunalar, texnologik liniyalardan tashqari, patent, litsenziya, "nou-xau"larni, ya'ni axborot resurslarini xarid qilish talab qilinadi, aksariyat hollarda ular ilmiy tadqiqotlar natijalari bo'lishi mumkin. Texnik salohiyat, nafaqat texnik vositalarning oddiy to'plamini, balki texnik salohiyat ro'yobga chiqishiga yo'ldosh bo'lgan yoki uning zaruriy sharti bo'lgan jismlashmagan tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga olishi lozim [9].

Qishloq xo'jaligining texnik salohiyati — bu mavjud texnika vositalari (traktorlar, kombaynlar, sug'orish uskunalari, ekish, o'rish va yig'ish texnikalari, avtomatlashtirilgan yoki raqamli texnologiyalar) yordamida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini maksimal darajada oshirish imkoniyatini ifodalaydigan salohiyat ko'rsatkichidir. Ushbu tushuncha ishlab chiqarishda ishtirok etadigan texnika vositalarining turlari, ularning soni, sifati, eskirish hamda texnika bilan ta'minlanganlik darajasi, ish unumdorligi va energiya samaradorligi kabi omillar bilan belgilanadi.

Shuningdek, u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mavjud texnika vositalari yordamida yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi ekinlaridan hosil olishda maksimal ishlab chiqarish yoki ushbu resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ifodalaydi. Bunda, odatda, texnika vositalarining to'liq ishlashi, ya'ni mavjud resurslarning maksimal samaradorlikda ishlatilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Texnik salohiyatni baholash qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish, resurslarni tejash va ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash uchun zarur hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan barcha ta'riflarni umumlashtirgan holda, bizningcha, "texnik salohiyat" tushunchasining mohiyatiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq. Tahlil natijalarini umumlashtirgan holda, shunday xulosaga kelish mumkinki, qishloq xo'jaligining texnik salohiyati – bu ishlab chiqarish o'lchami va ixtisoslashuvi bilan belgilangan texnik vositalar yig'indisi bo'lib, ular mehnat resurslarining ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan texnologik bog'langan hamda yer resurslaridan samarali foydalanish bilan bog'liq texnologik jarayonlarni bajarish asosida mahsulotning muayyan miqdorini ishlab chiqarish imkoniyatini o'z ichiga oladi [5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аверкиев А.И. Развитие и использование технического потенциала сельскохозяйственного производства. Техника и оборудование для села.-2001. №12-С.26-29.

2. Драгайцев В.И. Организационно-экономический механизм обновления технической базы сельского хозяйства. Социально-экономические преобразования в аграрном секторе России: итоги и перспективы. -М.:ГНУ. ВНИИЭСХ, 2005.

3. Кортяев А.Н. Экономическая эффективность использования технического потенциала и пути ее повышения: На примере Республики Северная Осетия-Алания. 2006 г.

4. Креймер Н.А. Экономический механизм восстановления и развития технического потенциала сельскохозяйственных предприятий: По материалам Краснодарского края. Краснодар, 2004 г.

5. Madiyev Sh.Sh. Qishloq xo‘jaligida texnik salohiyatni oshirish yo‘nalishlari. “O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. 2025-yil 14-15-aprel. Buxoro. BuxDU.

6. Мансурова Н.А. Вопросы оценки производственного потенциала фирмы: Сб. научных трудов «Предпринимательство в переходной экономике». – Тверь: Твер. гос. ун-т, 2006. –70 с.

7. Розалиева М.А. «Организационно-экономические основы повышения эффективности использования технического потенциала в аграрном секторе». Диссертация на соискание кандидата экономических наук. Саратов. 2003.

8. Ставцев А. Н. Экономическая эффективность использования технического потенциала в молочном скотоводстве. Диссертация на соискание кандидата экономических наук. Орел. 2011 г. 177 с.

9. Суганов А.В. Методика оценки и перспективы развития технического потенциала сельскохозяйственного производства. Диссертация на соискание кандидата экономических наук. Орел. 2004 г. 228 стр.

